

Giyohvandlik Vositalari Va Psixotrop Moddalarning Noqonuniy Aylanishiga Qarshi Profilaktikaning Ahamiyati

I. Akramjonov

Jamoat xavfsizligi universiteti, Magistaturasi tinglovchisi kapitan

Annotatsiya: Ushbu maqolada giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishi bilan bogʻliq muammolar, qarshi kurashi, oldini olish va profilaktikasi bilan bogʻliq xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan ishlar tufayli tuzatilib oʻtilgan, shuningdek bugungi kunning eng dolzarb muammolari va ularga qarshi kurashi iynalishlari kursoratilgan.

Kalit soʻzlar: Giyohvandlik, konvensiya, suiisteʼmol, rezolyutsiya, profilaktika, rehabilitatsiya, tibbiy-psixologik.

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyat, giyohvandlikka qarshi kurashdagi barcha chora-tadbirlar orasida profilaktika (oldini olish) eng muhim oʻrinni egallashi lozimligini taʼkidlab, muammo yuzaga kelgach, uni bartaraf etishdan koʻra, uning oldini olish ancha samarali va ustuvor hisoblanadi.

1961-yilda qabul qilingan Giyohvandlik vositalari toʻgʻrisidagi Yagona konventsiyaning 1972-yildagi Protokolining 38-moddasi va 1971 yildagi Psixotrop moddalar toʻgʻrisidagi konventsiyaning 20-moddasiga muvofiq, aʼzo davlatlar giyohvandlik vositalarini suiisteʼmol qilishni oldini olish boʻyicha profilaktika ishlarini olib borish, giyohvandlik vositalarini davolash boʻyicha barcha zarur choralarini koʻrishlari shartligi belgilangan.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1988 yildagi “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish” konvensiyasining 14-moddasida “Har bir Tomon oʻz hududida noqonuniy ravishda yetishtiriladigan koʻknori va nasha oʻsimliklari kabi tarkibida giyohvandlik yoki psixotrop moddalar boʻlgan oʻsimliklarni noqonuniy yetishtirishning oldini olish va ularni yoʻq qilish boʻyicha tegishli choralarini koʻradi” deb belgilangan.

Giyohvand moddalarga moyillik va ularning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash boʻyicha koʻp yillik tajriba umumlashtirilishi natijasida BMT hujjatlarida ikki asosiy strategik yoʻnalish belgilab qoʻyilgan:

1. Giyohvand va psixoaktiv moddalarga noqonuniy talabni kamaytirish;
2. Giyohvand va psixoaktiv moddalarning noqonuniy taklifini va yetkazib berishni kamaytirish.

Bu ikkala yoʻnalish bir-biriga bogʻlangan boʻlib xalqaro va milliy darajada oʻzaro bogʻliq harakatlar tizimini ifodalaydi.

Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkiloti oʻz rezolyutsiyasida “Giyohvandlik moddalarni nazorat qilishning xalqaro strategiyasi”ni qabul qildi. Ushbu rezolyutsiyalar giyohvandlikka qarshi kurash strategiyasiga xalqaro milliy harakatlarni kiritishni nazarda tutadi, undan qator hukumatlar va xalqaro tashkilotlar foydalanadi. Ular orasida quyidagilarga alohida eʼtibor qarati lozim:

- ✓ giyohvandlik vositalari ustidan nazorat tizimini takomillashtirish;

- ✓ qonuniy maqsadlarda giyohvandlik vositalariga bo‘lgan talab va ularni yetkazib berish o‘rtasidagi muvozanatga erishish;
- ✓ giyohvandlik vositalarini noqonuniy manbalardan yo‘q qilish;
- ✓ giyohvandlik vositalariga noqonuniy talabni kamaytirish;
- ✓ noqonuniy giyohvand moddalarga bo‘lgan talabni kamaytirish va qonuniy giyohvand moddalarni noto‘g‘ri ishlatish yoki noqonuniy ishlatishning oldini olish;
- ✓ narkomanni davolash, rehabilitatsiya qilish va ijtimoiy reintegratsiya qilish.

Bugungi kunda xalqaro xamjamiyat tomonidan olib borilayotgan yuori darajadagi qarshi kurash va profilaktik ishlarga qaramay, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy tarqalishi soxasida saqlanib qolayotgan mavjud muammolarga to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiqiyu Jumladan:

yangi turdagi giyohvandlik moddalarning paydo bo‘lishi – hozirda har oy deyarli yangi sintetik (sun‘iy) giyohvandlik modda chiqmoqda. Ular “energiya beruvchi vosita”, “tabiiy dori” yoki “vape aralashmasi” sifatida yashirin tarzda sotilmoqda. Bu moddalarning tarkibi tez-tez o‘zgarib turadi, shuning uchun ularni aniqlash va nazorat qilish qiyin bo‘lib qolmoqda;

chegaralarda nazorat sustligi – giyohvand moddalar asosan qo‘shni mamlakatlar orqali o‘tadi. Ba’zi chegaralarda texnik vositalar eski yoki yetarli emas, shu sababli narkotiklar yashirin yo‘llar bilan olib kirilmoqda;

yoshlar orasida giyohvandlikka qiziqish ortib bormoqda – o‘smirlar va talabalar orasida “vape”, “spays”, “mix” kabi moddalardan foydalanish holatlari ko‘paygan. Ko‘pchilik ularni zararli emas deb o‘ylaydi, ammo bu moddalar ham kuchli qaramlik keltirib chiqaradi;

davolanishdan keyin qayta giyohvandlikka berilish – rehabilitatsiya (davolanish va tiklanish) markazlari yetarli emas, mavjudlari esa ko‘p hollarda faqat qisqa muddatli yordam beradi. Natijada ko‘pchilik bemorlar yana eski odatiga qaytib qoladi;

aholi orasida ma’lumot yetishmasligi – ko‘pchilik, ayniqsa yoshlar, narkotik moddalarning sog‘liqqa, oilaga va kelajakka qanday zarar yetkazishini to‘liq bilmaydi. Maktablarda, oliygoohlarda va ommaviy axborot vositalarida bu haqda tushuntirish ishlari kam olib borilmoqda;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar o‘rtasida hamkorlik yetarli emasligi – narkotiklar bilan bog‘liq jinoyatlar ko‘pincha xalqaro xarakterga ega. Ammo turli davlatlar va idoralar o‘rtasida tezkor axborot almashinuvi sust. Shu sababli jinoyatchilarni vaqtida aniqlash va to‘xtatish qiyinlashmoqda.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash muammolari bo‘yicha xalqaro hujjatlarning tahlili shundan dalolat beradiki, giyohvand moddalarga qarshi kurash bo‘yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirishdagi asosiy yo‘nalishlar quyidagi vazifalarni hal etish bilan bog‘liq:

1. Eng muhim vazifalardan biri — davlatlar o‘rtasida samarali hamkorlik munosabatlarini o‘rnatish va keyinchalik ularni mintaqaviy darajada integratsiya qilishni nazarda tutuvchi siyosatni ishlab chiqishdir. Bu siyosatning asosiy maqsadi, Giyohvandlik vositalarni iste‘mol qilishni kamaytirishga qaratilgan choralar bilan ularning tarqalishini cheklashga qaratilgan choralar o‘rtasida muvozanatni ta‘minlashdir.

2. Ma‘muriy nuqtai nazardan eng muhim vazifalardan biri — turli davlatlar vazirliklari va idoralari faoliyatini muvofiqlashtirish uchun maxsus tuzilmalarni yaratishdan iborat. Bu jarayon “gorizontal muvofiqlashtirish” deb ataladi. Shu bilan birga, davlat muassasalarining yuqori darajali boshqaruv organlari bilan hamkorlikda ish olib borishi, ya‘ni “vertikal muvofiqlashtirish” esa alohida murakkablik va tashkiliy yondashuvni talab etadi.

3. Giyohvandlik moddalarga qarshi kurash strategiyalarini amalga oshiradigan davlat muassasalari uchun yana bir muhim vazifa — jamoatchilikni davlat siyosati ishlab chiqilishi va uni hayotga tatbiq etish jarayonlariga jalb etishdir. Bu borada aholi o‘z ixtiyori va jamoaviy tuzilmalar orqali

faol ishtirok etishi zarur. Jamoatchilikning bevosita ishtirokini ta'minlash, qabul qilinadigan qarorlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

BMTga a'zo davlatlarning aksariyatining giyohvandlik vositalariga qarshi kurashish strategiyalarida o'zaro uyg'unlik mavjud. O'zbekiston ham mazkur yo'nalishdagi BMTning tamoyillarni to'liq qo'llab-quvvatlaydi. Mamlakat BMTning ushbu sohadagi uchta asosiy konvensiyalariga qo'shilgan:

1961 yildagi Yagona konvensiya, 1971 yildagi Psixotrop moddalar to'g'risidagi konvensiya, 1988 yildagi Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish to'g'risidagi konvensiya¹.

Bu borada O'zbekiston xalqaro tashabbuslardagi ishtirokini faollashtirib, sohada muammoga ancha ilgariroq duch kelgan davlatlarning tajribasidan foydalanib kelmoqda.

Shuningdek, MDH doirasidagi davlatlar bilan ham giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurash bo'yicha hamkorlik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Hozirgi vaqtda a'zo davlatlarning barchasi giyohvandlik moddalar iste'molini kamaytirishga asosiy e'tiborni qatargan, shu bilan birga, narkotik moddalarga mukkasidan ketgan shaxslarni davolash va rehabilitatsiya qilishga qaratilayotgan chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

Bundan tashqari, yana bir xalqaro hujjat, "Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya"ning 33-moddasida bolalarni giyohvandlik va giyohvandlikdan himoya qilish zarurligi ta'kidlangan. Xuddi shunday holat Yoshlar uchun Butunjahon Harakat Dasturining² bandlarida ham o'z aksini topgan bo'lib, unda yoshlar tashkilotlari va yoshlarni giyohvand moddalarga bo'lgan talabni cheklashga qaratilgan tadbirlarga jalb etish takliflari ilgari surilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi qonuni normalaridan ko'rinib turibdiki, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarning muomalasi va ularning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi giyohvandlik vositalariga qarshi kurashishga qaratilgan faoliyatni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Giyohvandlik va giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishining oldini olish nima ekanligini ko'rib chiqaylik?

Kompleks yondashuvga asoslangan faol profilaktika va rehabilitatsiya konsepsiyasi mualliflari antinarkotik profilaktikani muayyan mazmun, bosqichma-bosqich rivojlanish va aniq yakuniy natijaga ega bo'lgan, yagona davlat dasturi doirasida tashkil etiladigan, davlat va jamoat tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar tizimi sifatida talqin qilinad.

Profilaktikani aynan bunday faoliyat tizimi sifatida tushunish, giyohvand moddalarni iste'mol qilish va ularning noqonuniy aylanishining oldini olishga qaratilgan umumdavlat profilaktika tizimi doirasida ta'lim muhitida olib boriladigan profilaktika faoliyatini alohida kichik tizim sifatida ajratib ko'rsatish imkonini beradi. Mazkur kichik tizim esa o'ziga xos maqsad va vazifalarga ega bo'lib, u umumiy strategiyaning tarkibiy qismi sifatida xizmat qiladi. Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni suiiste'mol qilishning oldini olish bu ushbu moddalarning tarqalishi, ularni qo'llashga olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni barvaqt aniqlash, ularni bartaraf etish va insonlarni, ayniqsa, yoshlarni giyohvandlikka moyillikdan himoya qilishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar majmuasidir.

Bunday profilaktika:

ijtimoiy (oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari orqali ta'sir o'tkazish);

ma'rifiy (maktab va oliygo'hlarda ta'lim-tarbiya ishlari orqali tushuntirish);

¹ Международные Конвенции по защите прав человека и борьбе с преступностью: (Сб. междунар. документов)/Сост. Ю.С. Пулатов. – Т.: Шарк, 1995. – С. 302-338. – 448 с. – (Сравнительное правоведение. Вып. 1). <https://lex.uz/docs/2676167>.

²BMT Bosh Assambleyasining 1995 yil 14 dekabrda 91-yalpi majlisi // <https://documents.un.org/doc/resolution/gen/n96/771/45/img/n9677145.pdf>.

tibbiy-psixologik (salomatlikni mustahkamlash, stressni yengish, qo'llab-quvvatlash);

Uning maqsadi odamlarning, ayniqsa yoshlar va voyaga yetmaganlarning giyohvand moddalarga bo'lgan qiziqishini bartaraf etish, ularni sog'lom hayot tarziga yo'naltirish va suiste'mol oqibatlarini oldini olishdan iborat.

Huquqshunos olimlar jinoyat va huquqbuzarliklarning oldini olish hamda profilaktikasi haqida so'z yuritar ekan, bu tushunchalarni jinoyat va huquqbuzarliklarni keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish yoki ularning ta'sirini kamaytirishga qaratilgan davlat va jamoatchilik hamkorligida amalga oshiriladigan umumiy ijtimoiy-iqtisodiy, mafkuraviy, madaniy-tarbiyaviy va huquqiy chora-tadbirlar majmuasi sifatida talqin qiladilar.

Bu chora-tadbirlar jamiyatdagi jinoyatchilik darajasini kamaytirish, aholi o'rtasida huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, sog'lom ijtimoiy muhit yaratishga qaratilgan tizimli va barqaror faoliyatni o'z ichiga oladi.

Jinoyatlarning profilaktikasi tushunchasi mazmunini aniqlashda ko'plab huquqshunos olimlar uning mohiyatini ham keng, ham tor ma'nolarda talqin qiladilar.

Keng ma'noda profilaktika - bu jinoyatlarning sodir etilishining oldini olish, jamiyat a'zolarini huquqqa zid, jazoga tortiladigan qilmishlarni sodir etishdan saqlashdir. Bu ma'noda profilaktikaga huquqni muhofaza qiluvchi organlarning faoliyati ham kiradi.

Tor ma'noda profilaktika - bu jinoyatlarni keltirib chiqaradigan sabab va shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, o'zining jamiyatga qarshi yo'nalgan xulq-atvori bilan kelgusida huquqbuzarlik sodir etishi mumkin bo'lgan shaxslarni aniqlab, ular bilan maqsadli profilaktik ishlar olib borish faoliyatini anglatadi³.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasi profilaktikasi - bu ushbu illatlarni keltirib chiqaradigan ijtimoiy, huquqiy va kriminogen omillarni bartaraf etishga, ularga moyillik belgilari mavjud bo'lgan shaxslar bilan maqsadli ishlashga va jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan, davlat va jamoatchilik hamkorligida amalga oshiriladigan tizimli chora-tadbirlar majmuasidir.

Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasi butun dunyo hamjamiyati oldida turgan eng jiddiy tahdidlardan biridir. Ushbu muammo nafaqat alohida shaxslar sog'lig'iga, balki butun jamiyatning barqaror rivojlanishiga, ijtimoiy xavfsizlikka va davlatlarning milliy xavfsizligiga ham katta zarar yetkazmoqda. Shu bois xalqaro tashkilotlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, MDH va boshqa mintaqaviy tuzilmalar hamda alohida davlatlarning siyosiy va huquqiy tizimlari giyohvandlikka qarshi kurashda alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, profilaktika choralari barcha sohalarda ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Chunki muammo paydo bo'lgach, uni bartaraf etish nihoyatda murakkab va katta xarajatlarni talab qiladi. Ammo uning oldini olish imkoniyatlari samarali qo'llansa, ijobiy natijalarga erishish mumkin.

Umumiy xulosa qilib aytganda, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashda profilaktika eng muhim va ustuvor yo'nalish hisoblanadi. Profilaktika choralari faqat davlat siyosati darajasida emas, balki butun jamiyat miqyosida olib borilishi kerak. Xalqaro hamkorlik, milliy qonunchilikning takomillashuvi, jamoatchilik ishtiroki, ta'lim va tarbiya tizimidagi chora-tadbirlar, shuningdek, reabilitatsiya va ijtimoiy reintegratsiya dasturlari uyg'un holda qo'llanilgandagina samarali natijalarga erishish mumkin. Giyohvandlikka qarshi kurashning muvaffaqiyati, avvalo, uning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning qanchalik samarali va tizimli tashkil etilishiga bog'liqdir. Shu bois profilaktika masalasiga ustuvorlik berish nafaqat milliy xavfsizlikni ta'minlash, balki yosh avlodni sog'lom va barkamol insonlar qilib tarbiyalash, jamiyat barqarorligini mustahkamlashning ham eng to'g'ri yo'lidir.

³ UNODC rasmiy sayti: www.unodc.org

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. “Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. – 1999-yil 19-avgust.
3. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. – Toshkent: Adolat, 2024.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-iyuldagi PF-5099-son Farmoni – “Narkotik moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 28-dekabrda 1067-son qarori – “Giyohvandlik vositalari bilan bog‘liq jinoyatchilikning oldini olish va nazoratni kuchaytirish to‘g‘risida”.
6. BMTning 1988-yil 20-dekabrda “Narkotik vositalar va psixotrop moddalar noqonuniy aylanishiga qarshi kurash to‘g‘risida”gi Konvensiyasi.
7. BMTning 1961-yilgi “Narkotik moddalar to‘g‘risida yagona konvensiyasi” va unga 1972-yilgi tuzatishlar.
8. Karimov, A. “Giyohvandlikka qarshi kurashda profilaktika choralari va ularning samaradorligi.” – *Ijtimoiy fanlar jurnali*, 2022, №3, 45–52-betlar.
9. Abdurahmonova, N. “O‘smirlar o‘rtasida giyohvandlikning oldini olishda oilaning roli.” – *Huquq va jamiyat*, 2021, №5.
10. Hasanov, B. “Narkotik moddalarga qarshi kurashda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning o‘rni.” – *Ichki ishlar akademiyasi axborotnomasi*, 2020, №2.
11. UNODC. *World Drug Report 2024*. – Vienna: United Nations Office on Drugs and Crime, 2024.
12. To‘rayev, S. “Profilaktika tizimini kuchaytirish orqali giyohvandlikka qarshi kurashni takomillashtirish yo‘llari.” – *Huquqiy tadqiqotlar jurnali*, 2024, №4.